

### KORXONALARDA BUDJETLASHTIRISH VA XARAJATLARNI HISOBGA OLISH TARTIBI: XALQARO TAJRIBA VA BIZNING AMALIYOT

*Talaba Azamov Shoxboz*

Korxonalarda budjetlashtirish va xarajatlarni hisobga olish tartibi,

Hozirgi globallashtirish sharoitida dunyo aholisi soni shiddat bilan o'sishi va shunga yarasha oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyojni ortib borishi. Agrar tarmoqda islohatlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholining ijtimoiy himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlarning samarali tizimini yaratish bo'yicha "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash, to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish, yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, Sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish kabi vazifalar belgilangan.

Iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida amalga oshiriladigan xarajatlarning tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomni tasdiqlash to'g'risidagi qarori bilan tasdiqlangan va 2003 yil 15 oktabrdagi 444-sonli qarori bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan «Nizom» ga asosan amalga oshiriladi.

Ushbu «Nizom» ga (Mazkur Nizomga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2006 y. PQ-532-son Qarori, Vazirlar Maxkamasining 21.05.2007 y. 105-son Qarori, 02.10.2008 y. 221-son Qarori, 11.03.2009 y. 63-son Qarori, 17.02. 2010 y. 22-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2011 y. PQ-1675-son Qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan) asosan iqtisodiy mazmuni va umumiylik xususiyatlariga ko'ra quyidagi elementlar bo'yicha ajratiladi

1. Ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari;
2. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
3. Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari;
4. Asosiy fondlar amortizatsiyasi;
5. Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlari.

Ijtimoiy hisobotlarda mahsulot tan narxini rejalashtirish va hisoblashda xarajatlarni kolkulyatsiyasi moddalar bo'yicha guruhlash qabul qilingan bo'lib, bu usulda xarajat turlari ko'proq tabaqalashtirilgan bo'lib, mahsulot tan narxini hisoblash ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Amalga oshirilayotgan va oshirilishi lozim bo'lgan xarajatlarni iqtisodiy elementlar bo'yicha guruhlashtirish natijasida mehnat xarajatlari uchun berilgan ish xaqini va uning tarkibini, sarflangan moddiy (material) xarajat, turli maqsadlarga sarflangan pul xarajatlari (ob'ektlaribo'yicha) summasini aniqlab, ularni chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Hozirgi davrda korxonalarda amalga oshiriladigan xarajatlar o'zgaruvchan holda doimiy xarajatlardan tashkil topadi. Ular ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hajmi, ish miqdorining o'zgarishi bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Doimiy xarajatlar ishlab chiqariladigan mahsulot hajmining o'zgarishi bilan uzviy bog'liq emas. Mahsulot xajmi ko'payishi yoki kamayishi bilan doimiy xarajatlar qiymati o'zgarmaydi.

O'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqariladigan mahsulot xajmining o'zgarishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorining ko'payishi o'zgaruvchan xarajatlar ko'proq sarflanishini taqozo etadi. Ularga materiallar, yordamchi materiallar, urug'liklar, ko'chatlar, ozuqalar, mehnatga to'lanadigan ish haqi, elektr-energiya xarajatlari va boshqa shu kabi xarajatlar kiradi.

Materiallarni tayyorlash, mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar buxgalteriya hisobining alohida schotlarida joriy tartibda guruhlanadi. Tayyorlangan materiallar, ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar birligining tannarxini aniqlash buxgalteriya hisobida *kalkulatsiyalash* deyiladi.

Kalkulatsiyaning juda keng ma'nodagi mazmuni xarajatlarni bir tizimga keltirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida mahsulot (ish, xizmat)larning tannarxi to'g'risida ma'lumot shakllan-tirishdan iborat. Nisbatan tor ma'noda har xil xarajatlarni yagona pul o'lchovida umumlashtirish va ularni mahsulot(ish, xizmat)lar turlari bo'yicha guruhlash usulidir.

Barcha xarajatlar yagona pul o'lchovida ifodalanib, tegishli yo'nalishlar bo'yicha guruhlanadi va mahsulot(ish, xizmat)lar birligining tannarxi hisoblanadi. Birinchi qarashda oddiy bo'lib ko'ringan bu ish juda murakkab va ser mehnat jarayon hisoblanadi. Uning muammolari maxsus kalkulatsiyalash nazariyasini va kalkulatsiya ishining turli amaliy jihatlarini vujudga keltirdi. Tannarxni kalkulatsiyalash korxonada ishlab chiqarishni rejalashtirish, boshqarish va samaradorlikni baholashda muhim ahamiyatga ega.

Kalkulatsiyalash masalalarining murakkab ligi eng avvalo xo'jalik jarayonlarining xilma-xilligi, ishlab chiqarish ning tashkiliy va texnologik shart-sharoitlari murakkablashuvi bilan bog'liq. Murakkablik xarajatlarni guruhlash uchun asostanlash paytidayoq vujudga keladi. Bu yerda bir qancha asoslar mavjud: kalkulatsiyalash obyekti, xarajatlar elementi, tannarx moddalari. *Kalkulatsiyalash obyektlari*– butan narx hisoblash uchun xarajatlarni guruhlashning asosidir.

Ayrim ishlab chiqarishlarning tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tannarx hisoblash har xil usullar yordamida bajariladi, buni hisoblash jarayoni esa buxgalteriya hisobining alohida bo'limi bo'lib, uni *kalkulatsiya ishi* deb atash mumkin. Uning asosini belgilangan tartibda tasdiqlangan tegishli me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadigan, xarajatlarni yagona pul o'lchovida umumlashtirish va ularni ma'lum ketma-ketlikda guruhlash yo'li bilan mahsulot, ish va xizmatlar tannarxini hisoblash tashkil etadi.

### Xulosa

O'zbekiston Respublikasining sanoat raqobatbardoshligi bo'yicha reytingi Birlashgan Millatlar Tashkilotining sanoatni rivojlantirish bo'yicha tashkiloti (UNIDO) tomonidan ikki yil kechikish bilan ishlab chiqiladi. Bunda oxirgi hisobot 2020 yil yakunlari bo'yicha 2022 yilda chop etilgan.

Reyting asosini ishlab chiqaradigan sanoat rivojlanishining bir qancha asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha hisoblangan sanoat raqobatbardoshligining kompozit indeksi tashkil etadi. Buning uchun o'rganilayotgan mamlakat bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalaniladi. Shundan kelib chiqib, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti mutaxassislari ishlab chiqaradigan sanoatni rivojlantirish bo'yicha 2017-2022 yillarga oid ko'rsatkichlar va O'zbekistonning UNIDO reytingidagi o'rini tahlil qildi.

Tahlilga ko'ra, O'zbekiston 2017-2020 yillarda UNIDO reytingida 95-o'rindan 89-o'ringa, ya'ni 6 pog'onaga ko'tarildi va bu e'tiborga molik yutuq. Bundan tashqari, O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida sanoat raqobatbardoshligi indeksi bo'yicha Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu yutuqlarga oxirgi yillarda ishlab chiqaradigan sanoatni jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilish yordamida erishildi.

Shuningdek, sanoat raqobatbardoshligi indeksiga kiritilgan ayrim asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha O'zbekistonda quyidagi ijobiy o'zgarishlarga erishildi. Xususan, ishlab chiqaradigan sanoatning yalpi ichki mahsulot (YaIM) dagi ulushida barqaror o'sish tendensiyasi qayd etildi, ya'ni 2017 yilda 15,5 foiz, 2022 yilda esa 20,5 foizdir. Sohada aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish hajmi har yili o'rtacha 4,7 foizdan barqaror ravishda o'sib bordi.

O'zbekiston jahon miqyosida mahsulotlarning raqobatbardoshligini mustahkamlash bo'yicha tobora yaxshiroq natijalarga erishmoqda. Har yili jahon bozorida mahalliy sanoat mahsulotlariga talab ortib, eksport geografiyasi kengaymoqda. Buning natijasida tovarlar eksportida ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari ulushi 76,6 foizdan 83,3 foizga oshdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi Qonuni. №404. 2016 yil 13 aprel
2. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi Qonuni (yangi tahrir). - T.: 2000 yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga eng asosiy va dolzarb siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va jamiyatni demokratik rivojlantirish bo'yicha Murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr'.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 26 yanvar, PQ-1047-son.
5. O'zbekiston Respublikasining "Xususiy korxonalar to'g'risida" gi 2003 yil 11 dekabrda Konuni. // Solik va bojxona xabarlari, 2004 yil 10 fevral, №6.
6. Abdullaev R.A. Buxgalterskiy uchet i audit. izd. "IQTISOD MOLIYA". Toshkent. 2010
7. "Bozor, pul va kredit" jurnal. –T.: 2010-2012 yillar.



8. Ibragimov A.K. Ishlab chiqarish harajatlarini hisobga olish va audit: Iqtisod fanlari doktori ... dissertatsiya avtoreferati. - T.: O'zR BMA, 2018 - 32 b.
9. O'razov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining kontseptual masalalari K.B. Urazov. - T.: Fan nashriyoti, 2015.
10. Shoalimov A.X., Tojiboeva SH.A. Moliyaviy va Boshqaruv tahlili. O'quv qo'llanma, TDIU:2021-280 b
11. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).
12. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)
13. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
14. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)